



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

BARQAROR INVESTITSIYALAR SIYOSATI

Toshkent-2024

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Barqaror investitsiyalar siyosati

I. Umumiy qoidalar

1.1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (*keyingi o'rirlarda - Universitet / JIDU*) xalqaro munosabatlar, diplomatiya, iqtisodiyot va huquq sohasidagi yetakchi ta'lim va ilmiy markaz sifatida barqaror rivojlanish tamoyillarini ilgari surishda o'z mas'uliyatini tan oladi. Mazkur Barqaror investitsiyalar siyosati (*keyingi o'rirlarda - Siyosat*) BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ravishda, ekologik, ijtimoiy va korporativ mas'uliyat (*keyingi o'rirlarda - ESG*) prinsiplarini hisobga olgan holda universitet investitsiyalarini mas'uliyatli boshqarishni ta'minlashga qaratilgan.

1.2. Siyosat ekologik, ijtimoiy va boshqaruvi omillarini baholash asosida qabul qilinadigan investitsiya qarorlarini tartibga soladi va JIDUning barcha investitsiya operatsiyalariga, shu jumladan aktivlarni boshqaruvchilar va tashqi investitsiya menejerlariga nisbatan qo'llaniladi.

II. Siyosatning maqsadlari

2.1. Siyosatning maqsadi – JIDU aktivlarini barqaror rivojlanish prinsiplarini hisobga olgan holda, xalqaro amaliyat standartlariga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, shu jumladan "Yashil iqtisodiyot" va "O'zbekiston – 2030" dasturlariga muvofiq boshqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

2.2. Siyosat quyidagilarga qaratilgan:

- universitetning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi va iqtisodiy rivojlanishning milliy ustuvorliklariga mos keladigan moliyaviy aktivlarini barqaror boshqarishni qo'llab-quvvatlash;

- investitsiya strategiyasiga ESG prinsiplarini integratsiya qilish, bunda ekologik, ijtimoiy va korporativ standartlarga rioya qilish, shuningdek, Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiqlikni ta'minlash zarurligini hisobga olish;

- potentsial ekologik xavfli yoki ijtimoiy beqaror loyihalarga investitsiyalar bilan bog'liq xatarlarni kamaytirish, xatarlarni baholashning maqbul darajasini saqlab qolish;

- talabalar orasida mas'uliyatli investitsiya madaniyatini shakllantirishga ko'maklashish.

III. Barqaror investitsiyalash prinsiplari

3.1. JIDU barqaror investitsiyalashning quyidagi prinsiplariga amal qiladi:

– **ekologik barqarorlik:** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ekologik toza, resurslarni tejaydigan va kam uglerodli texnologiyalarni rag'batlantirish, atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish;

– **ijtimoiy mas'uliyat:** Milliy taraqqiyot dasturlari doirasida inson huquqlariga rioya qilish, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash va inklyuziv o'sishga xizmat qiladigan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash;

– **korporativ boshqaru:** JIDU investitsiya kiritayotgan loyihalarda korporativ boshqaru ko'rsatkichlarini hisobga olish, shu jumladan shaffoflik, etika, mustaqillik va hisobdorlik;

– **ESG-integratsiya:** Aktivlarning investitsiyaviy jozibadorligini tahlil qilishda ESG-omillarini hisobga olish.

3.2. Xatarlarni hisobga olish:

Investitsiya qarorlarini qabul qilishdan oldin, JIDU ma'lumotlar mavjudligiga qarab, potentsial zararlarni minimallashtirish va aktivlarning barqarorligini oshirish maqsadida ekologik, ijtimoiy va moliyaviy xatarlarni kompleks baholashni o'tkazishga intiladi.

IV. Investitsiya strategiyasi

4.1. JIDU quyidagi loyihalar va kompaniyalarga investitsiya kiritishga ustuvor ahamiyat beradi:

– barqaror ekologik amaliyotlarni namoyish etadigan (*masalan, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qisqartirish*);

– ijtimoiyadolat va inklyuzivlikni ta'minlaydigan (*masalan, xodimlarning huquqlariga riox qiladigan, tenglik va xilma-xillikni ta'minlaydigan*);

– korporativ boshqaru tamoyillarining yuqori standartlariga amal qiladigan (*masalan, qaror qabul qilishda shaffoflik va etikani qo'llab-quvvatlaydigan*).

4.2. JIDU quyidagilar bilan bog'liq kompaniyalarga investitsiya kiritmaydi:

– inson huquqlarini buzish yoki milliy yoki xalqaro standartlarga zid bo'lgan faoliyatda ishtirok etish;

– inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki tarqatish;

– atrof-muhitni jiddiy ifloslantirish.

4.3. Investitsiya vositalari:

- JIDU quyidagilarga investitsiya kiritishi mumkin;
- Barqarorlik prinsiplariga mos keladigan moliyaviy vositalar (*aktsiyalar, obligatsiyalar*);
- Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradigan loyihalar (*masalan, qayta tiklanuvchi energetika, infratuzilma, sog'liqni saqlash*).

V. Siyosatni amalga oshirish uchun mas'uliyat

5.1. Mazkur Siyosatni amalga oshirish uchun JIDUning Moliyaviy ofisi mas'uldir, u ruxsat etilgan aktivlar ro'yxatini shakllantiradi va ularning belgilangan mezonlarga muvofiqligini monitoring qiladi.

5.2. Moliyaviy ofis investitsiyalarning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri nuqtai nazaridan samaradorligini baholaydi. Moliyaviy ofis O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va xalqaro amaliyotdagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, zarur bo'lganda Siyosatni qayta ko'rib chiqishni boshlashi mumkin.

5.3. Universitet tashqi boshqaruvchilarining investitsiya qarorlarini har doim ham to'liq nazorat qila olmasligini anglaydi va ularning mazkur Siyosat qoidalariga vijdonan rioya qilishlariga tayanadi.

VI. Yakuniy qoidalar

6.1. Barqaror investitsiyalar siyosati global amaliyotdagi o'zgarishlarni, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini va JIDUning strategik ustuvorliklarini hisobga olgan holda, uning dolzarbligini ta'minlash uchun zarur bo'lganda qayta ko'rib chiqiladi.

6.2. JIDU nomidan faoliyat yuritayotgan barcha investorlar va aktivlarni boshqaruvchilar, mazkur Siyosatning qoidalarini, shu jumladan uning prinsiplari va yondashuvlarini, oqilona doirada va tegishli shartlar mavjud bo'lganda hisobga olishga majburdirlar.

6.3. Universitet barqaror rivojlanish prinsiplariga nafaqat ta'lim va ilmiy faoliyatda, balki moliyaviy resurslarni boshqarishda ham sodiqligini tasdiqlaydi. Mas'uliyatli investitsiyalash – yangi avlod yetakchilari, diplomatlari, huquqshunoslari va iqtisodchilari kelajagini shakllantirishning muhim qismidir.